



CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, dastlabki
ma'lumot*




**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel: 76-225-65-74**


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



Asosiy tarkib, foizda



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

O'sish sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Uyushmagan savdo

Tarkibiy qism, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
Uyushmagan savdo
Yirik korxonalar

Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **14 874,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 12,5 % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 239,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 152,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 13 635,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 205,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 129,0 %) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar- oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **14 874,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan **112,5 %** ni tashkil etdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **91,7 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **8,3 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 23,2 % ulush bilan 3 450,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani 1,1 % ulush bilan 160,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Termiz sh. (117,2 %), Qumqo'rg'on(116,1 %), Uzun (115,2 %) , Angor (113,0 %) va Jarqo'rg'on (112,0 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Termiz sh. da qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	14874,8	112,5	1239,7	152,8	13635,1	109,9
Termiz sh.	3220,3	117,2	833,5	176,5	2386,8	104,9
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	534,4	110,4	6,9	52,4	527,5	112,0
Angor	671,1	113,0	30,4	248,1	640,7	110,1
Bandixon	160,5	111,7	2,3	72,5	158,2	112,6
Boysun	632,9	109,1	4,2	39,1	628,7	110,4
Muzrabot	553,1	109,1	5,2	78,7	547,9	109,5
Denov	3450,1	111,8	207,3	213,9	3242,8	108,5
Jarqo'rg'on	790,4	112,0	22,4	68,5	768,0	114,1
Qumqo'rg'on	594,3	116,1	7,4	52,9	586,9	117,9
Qiziriq	593,7	111,6	5,1	48,2	588,6	112,9
Sariosiyo	554,1	110,0	6,6	29,5	547,5	113,7
Termiz	281,0	108,0	17,5	48,7	263,5	117,5
Uzun	611,1	115,2	18,6	187,3	592,5	113,9
Sherobod	819,5	108,6	28,8	109,8	790,7	108,6
Sho'rchi	1408,3	109,8	43,5	97,9	1364,8	110,2


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **52,8 %** ga o'sdi va **1 239,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,3 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **13 635,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **9,9 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,7 %** ni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Boysun (**99,3 %**), Qiziriq (**99,1 %**), Muzrabot (**99,1 %**) va Qumqo'rg'on (**98,8 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (**25,9 %**), Termiz (**6,2 %**), Denov (**6,0 %**) va Angor (**4,5 %**) tumanlarda kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yirik korxonalar


AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 377,4** ming so'mni (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **9,9** % ga oshdi) tashkil etdi.


Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	5 377,4	109,9
Termiz sh	16 781,5	113,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2 882,2	108,1
Angor	4 845,9	110,6
Bandixon	2 022,1	108,8
Boysun	5 252,2	107,1
Muzrabot	3 729,5	106,8
Denov	8 550,4	109,1
Jarqo'rg'on	3 454,6	109,5
Qumqo'rg'on	2 419,0	113,6
Qiziriq	4 959,7	109,4
Sariosiyo	2 525,4	107,6
Termiz	3 469,2	105,7
Uzun	3 377,9	112,9
Sherobod	4 027,1	106,3
Sho'rchi	6 409,9	107,2

Eng yuqori hajmga ega hududlar




Eng past hajmga ega hududlar



* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz sh (**16 781,5** ming so'm), Denov (**8 550,4** ming so'm), va Sho'rchi (**6 409,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 205,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **29,0** % ga oshdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **910,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **76,1** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 295,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **9,8** %) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda a	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	2205,6	129,0	910,3	176,1	1295,3	108,6
Termiz sh. tumanlar:	88,4	144,9	88,4	144,9		
Oltinsoy	194,9	119,8	46,3	161,0	148,6	110,9
Angor	107,7	135,2	77,2	174,8	30,5	86,1
Bandixon	105,4	113,5	4,8	81,5	100,6	115,7
Boysun	153,1	115,4	74,5	190,7	78,6	83,9
Muzrabot	247,1	115,6	70,9	163,5	176,2	103,4
Denov	218,5	114,7	130,6	2,0 m	87,9	69,9
Jarqo'rg'on	138,6	164,8	60,4	195,4	78,2	147,0
Qumqo'rg'on	194,7	164,1	72,7	2,0 m	122,0	147,6
Qiziriq	157,4	138,4	48,3	2,1 m	109,1	119,9
Sariosiyov	169,8	115,1	59,1	193,3	110,7	94,6
Termiz	58,5	108,0	9,8	2,2 m	48,7	98,0
Uzun	143,3	183,9	69,7	164,6	73,6	2,1 m
Sherobod	55,9	123,0	44,8	128,5	11,1	104,3
Sho'rchi	2205,6	129,0	910,3	176,1	1295,3	108,6



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **910,3** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **1 295,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **910,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**434,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-xashaklar

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 295,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **945,7** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **326,1** mlrd. so'mni, otlar **17,3** mlrd. so'mni, parrandalar **6,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0 %** ni tashkil etib, **291,4** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,4 %** ga ko'paydi. Bunda jami savdo aylanmasining **95,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	291,4	106,4	12,5	60,4	278,9	110,1
Termiz sh.	99,0	108,7			99,0	109,0
tumanlar:						
Oltinsoy	8,0	108,0			8,0	108,0
Angor	9,0	113,3			9,0	113,3
Bandixon	1,5	117,4			1,5	117,4
Boysun	6,0	119,4			6,0	119,4
Muzrabot	6,7	113,5			6,7	113,5
Denov	47,0	113,1			47,0	113,1
Jarqo'rg'on	17,7	106,4			17,7	106,4
Qumqo'rg'on	7,3	109,7			7,3	109,7
Qiziriq	5,9	112,1			5,9	112,1
Sariosiyo	12,2	43,4			12,2	110,7
Termiz	27,7	110,2	2,2	110,4	25,5	110,1
Uzun	16,9	239,6	10,3	102,8 m	6,6	115,5
Sherobod	16,8	104,5			16,8	104,5
Sho'rchi	9,7	109,7			9,7	109,7


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4 077,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **27,7 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **1034,0** mlrd. so'mni (**44,5 %** ga o'sdi) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	4077,4	127,7	1034,0	144,5	3043,4	122,8
Termiz sh. tumanlar:	1205,5	107,4	168,0	66,9	1037,5	119,1
Oltinsoy	63,7	106,0	22,4	78,9	41,3	130,4
Angor	86,9	118,5	0,2	41,3	86,7	118,9
Bandixon	20,7	114,6			20,7	116,7
Boysun	53,3	123,8	1,6	100,6	51,7	124,7
Muzrabot	49,6	105,5	28,4	97,0	21,2	119,6
Denov	1284,5	130,3	226,9	135,5	1057,6	129,2
Jarqo'rg'on	258,2	118,5	38,3	110,6	219,9	120,0
Qumqo'rg'on	274,5	2,0 m	230,1	2,3 m	44,4	116,7
Qiziriq	26,0	112,7			26,0	116,9
Sariosiyo	110,0	117,8	3,6	144,5	106,4	117,0
Termiz	201,2	119,0	15,1	96,3	186,1	121,3
Uzun	68,4	196,3	26,8	59,4 m	41,6	120,9
Sherobod	88,6	169,2	54	2,2 m	34,6	122,1
Sho'rchi	286,3	2,5 m	218,6	3,7 m	67,7	119,8

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Uzun (**5 941,8 %**), Sho'rchi (**368,2 %**), Qumqo'rg'on (**232,3 %**), Sherobod (**224,8 %**) va Sariosiyo (**144,5 %**) tumanlarida kuzatildi.